

## TASAVVUFDA ISHQ, TAJALLI VA SHARIAT UYG'UNLIGI: AHMAD YASSAVIY HIKMATLARI HAMDA TASAVVUFIY TAFAKKUR TALQINI

*Abdinazarov Mansur Abdurahmon o'g'li*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti*

*Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotida ishq tushunchasining shakllanishi, uning nazariy va ruhiy-ma'naviy mohiyati hamda shariat bilan o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi. Abu Husayn Nuriy, Robiya Adaviya, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumi, Ahmad Yassaviy kabi mutasavviflarning qarashlari asosida ilohiy ishqning inson qalbi va ruhiy kamolotidagi o'rni yoritiladi. Maqolada ishq, tajalli, ehson, fano va baqo tushunchalari tasavvufiy tafakkurning markaziy kategoriyalari sifatida sharhlanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlari misolida ishqning insonni Allohga yaqinlashtiruvchi vosita ekanligi, shariat va tariqatning bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo'lishi ochib beriladi. Shuningdek, so'fiylar va faqihlar o'rtasidagi nazariy munosabatlar, komil inson konsepsiyasi hamda qalb pokligi masalalari tarixiy rivoyatlar va tasavvufiy manbalar asosida tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida tasavvufning asosiy maqsadi insonni ilm, amal, qalb pokligi va ilohiy muhabbat orqali komillikka yetkazish ekani asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, ishq, ilohiy muhabbat, Ahmad Yassaviy, hikmat, tajalli, ehson, fano, baqo, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, komil inson, qalb pokligi, ruhiy kamolot, so'fiylik, murshid, nafs tarbiyasi, ilohiy ishq.

**Аннотация:** В данной статье анализируется формирование концепции любви в учении суфизма, её теоретическая и духовная сущность, а также её совместимость с шариатом. На основе взглядов таких суфиев, как Абу Хусейн Нури, Рабия Адавия, Наджмиддин Кубро, Джалалуддин Руми и Ахмад Яссави, подчёркивается роль божественной любви в человеческом сердце и духовном совершенстве. В статье интерпретируются понятия любви, таджалли, ихсан, фано и бака как центральные категории суфийской мысли. Пример мудрости Ахмада Яссави показывает, что любовь является средством приближения человека к Богу, а шариат и тарика проявляются как взаимодополняющие системы. Также на основе исторических повествований и мистических источников анализируются теоретические отношения между суфиями и юристами, концепция совершенного человека и вопросы чистоты сердца. Исследование доказывает, что главная цель суфизма — привести человека к совершенству через знание, действие, чистоту сердца и божественную любовь.

**Ключевые слова:** суфизм, любовь, божественная любовь, Ахмад Яссави, мудрость, щедрость, благотворительность, наука, религия, просветление, истина, совершенный человек, чистота сердца, духовное совершенство, суфизм, муршид, самообразование, божественная любовь.

**Abstract:** This article analyzes the formation of the concept of love in the teachings of Sufism, its theoretical and spiritual essence, and its compatibility with Sharia. Based on the views of such Sufis as Abu Husayn Nuri, Rabiya Adawiya, Najmiddin Kubro, Jalaluddin Rumi, and Ahmad Yassawi, the role of divine love in the human heart and spiritual perfection is highlighted. The article interprets the concepts of love, tajalli, ihsan, fano, and baqa as central categories of Sufi thought. The example of Ahmad Yassawi's wisdom reveals that love is a means of bringing a person closer to God, and that Sharia and tariqa are manifested as complementary systems. Also, the theoretical relations between Sufis and jurists, the concept of a perfect person, and the issues of purity of the heart are analyzed based on historical narratives and mystical sources. The research proves that the main goal of Sufism is to bring a person to perfection through knowledge, action, purity of heart and divine love.

**Keywords:** Sufism, love, divine love, Ahmad Yassavi, wisdom, generosity, charity, science, religion, enlightenment, truth, perfect person, purity of heart, spiritual perfection, Sufism, murshid, self-education, divine love.

Tasavvuf tarixida ishq atamasi va konsepsiyasi ko‘plab bahslarga sabab bo‘lgan. Masalan, Abu Husayn Nuriy ishq so‘zini tasavvufda birinchi marta qo‘llagan. Robiya Adawiya ishqni Mutlaq Haqqa muhabbat sifatida talqin qilgan. Shu bilan birga, ba‘zi ulamolar, xususan G‘ulom Xalil Bag‘dodiy, ishqni faqat maxluqotga xos sifat deb hisoblab, Allohga oshiq bo‘lishni bid‘at deb baholashgan. Shu munosabat bilan Abu Abdulloh Xafif Sheroziy ochiq-oydin: Allohga ishqni izofa qilish noto‘g‘ri, chunki ishqdagi eng kichik bid‘at e’tiqod buzilishiga olib keladi. Bu qarashlar tasavvuf va shariat o‘rtasidagi nazariy chegaralarni belgilaydi: ishq va hikmat faqat Alloh taologa yo‘naltirilganida tasavvufiy tajriba sifatida maqbul hisoblanadi.

Shunday qilib, Yassaviy hikmatlarida: Ishq - inson ruhiy rivojlanishining markaziy omili; hikmatlar - shaxsiy tafakkur emas, Alloh taolodan keladigan ilhom mahsuli; shariat bilan uyg‘unlik - tasavvufiy tajribaning muhim sharti; pir va murshid - ruhiy yo‘lni boshqaruvchi rahnamolar; Qur‘on va Hadis - hikmatlar va ishqning legitim asosidir.

Tasavvuf nazariyasi va ishq konsepsiyasi tasavvuf ahli insonning ichki olami va borliq sirlarini anglashda e’tiroz va shubhalarni rad etmasdan, izoh va dalillar bilan tushuntirishga harakat qilgan. Insonning tabiiy savollari - “Inson qayerdan keladi? Qayerga ketadi?” - ishq orqali tushuntiriladi.

Najmiddin Kubro ishqni quyidagicha ta'riflaydi: "Ishq insonning yurak-bag'rini yondiruvchi bir otashdir. U aqlni shoshtiradi, ko'zini ko'r, quloqni kar qiladi. Ammo u eng ulkan qo'rquvlarni ham kichraytiradi. Butun diqqatni ma'shuqaga jalb etadi"[5]. Ibrohim Haqqul domla esa ishq orqali inson olamdagi go'zallikni va barcha mavjudotlarni Alloh sevgisi bilan qabul qilishini ta'kidlagan[2]. Shu nuqtai nazardan, tasavvufda ishq - sevgining eng mukammal va oliy darajasi sifatida qabul qilinadi. Ahmad Yassaviy ishq va tasavvuf adabiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur ta'riflab, oshiqning avvalo ruhiy va qalb darajasida Xudo bilan to'lib-toshgan bo'lishi zarurligini bildiradi:

Dardsiz odam odam emas, muni angling

Ishqsiz odam hayvon jinsi, muni tinglang[2]

Ibrohim Haqqul domlaning fikricha, ishq nafaqat dard, quvonch, fidoyilik va sadoqatni, balki doimiy ma'naviy-ruhiy harakatni ham o'z ichiga oladi. Bu harakat nafaqat insonni, balki olamni ham yangilab, o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan tasavvuf olimlari "xalqin jadid" (har on yangilanish) tushunchasini ilgari surganlar. Unga ko'ra, borliq har lahza yangilanadi, har on yangi yaratilish yuz beradi. Bu jarayonning asosi esa bir bo'lish (baqo) va yo'q bo'lish (fano) prinsiplariga bog'langan[8]. Har bir lahza bir bor bo'lish va yo'q bo'lish orqali yangilik va harakat hosil qiladi.

Koinotda takror mavjud emas; har bir lahza noyob va o'ziga xosdir. Bu jarayon ilmiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlanadi: amerikalik olim qirq yil davomida qor parchalarini tadqiq qilib, har bir parchaning boshqa bir parchaning takrorlanmasligini ilmiy asosda isbotlagan. Shu bilan birga, bu tushunchalarni oddiy inson anglash qiyin bo'lsa-da, tasavvuf so'fiy shoirlar ularni badiiy va poetik shaklda tushuntirishgan.

Jaloliddin Rumiy "Masnaviy"ning ilk jildida shunday deydi: "Har on olam yangilanmoqda va biz turg'un qolganligimiz uchun uning o'zgarishini ilg'ay olmaymiz"[7]. Tasavvuf olimlari borliqni har lahza yangilanib turishini va har yangilanishni ilohiy ishq nuri bilan bog'laydilar. Har bir Tajalli - Allohning borliqni yangilash jarayoni bo'lib, uning orqali yangi borliqlar maydonga keladi. Shu tarzda inson va olam doimiy yangilanish va mukammallikka intiladi.

Tasavvuf nazariyasida tajalli tushunchasi borliqning doimiy yangilanishi va o'zgarishini qalb ko'zi bilan idrok etish jarayonini ifodalaydi.

Ahmad Yassaviy bu jarayonni shunday ta'riflagan: "Tajallining maqomidir ulug' maqom. Ishqa hollarni qalb ko'zi bilan borliqni doimiy yangilanish va o'zgarishda ko'rishlar nazarda tutilgan"[8]. Najmiddin Komilov bu qarashni hayotga nisbatan "romantik" yondashuv sifatida baholaydi[4]. Tasavvufda ishq - insonni Alloh

diydoriga yetkazuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Yassaviy bu haqda shunday misralarni keltiradi:

Ishqqa qadam qo‘yg‘onlar Xaq diydorini ko‘rarlar,  
Muso sifat mashharda Xaqdin savol so‘rarlar,  
Ishq bozori – ulug‘ bozor. Biroq unda “savdo harom”.

Bu misralarda ishqqa qadam qo‘yish shariat amallaridan boshlanishini va oxirida tasavvufiy maqomlar orqali Alloh visoliga erishishni ifodalaydi.

Muso a.s. Alloh bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilgan payg‘ambar sifatida misol qilinadi; uning laqabi “Kalimulloh” bejizga berilmagan. Shu tariqa, ishq orqali inson Muso darajasiga ko‘tariladi, ya’ni Alloh bilan yaqinlik va ruhiy poklanishga erishadi. Yassaviy “ishq bozori” misrasida shuni ko‘rsatadiki, oshiq uchun dunyodagi boshqa narsalar ahamiyatsizdir:

Oshiq'larga sendin o‘zga g‘avg‘o xarom,  
Ishq yo‘liga kirganlarga dunyo xarom,  
Har ne qilsang oshiq qilgil Parvardigor.

Oshiq'larni Allohdan boshqa g‘avg‘osi yo‘q va dunyo ularni chalg‘itmasligi kerak. Bu nuqtai nazardan, dunyoparastlik va insonning nafs tasavvufda asosiy xatolardan biri hisoblanadi. Ahmad Yassaviy barcha xatolarning boshlanishi va davomini dunyosevgisi bilan bog‘laydi:

Dunyoparast nojinslardan bo‘yun tovla,  
Bo‘yun tavlav daryo bo‘lib toshdim mano.

Tasavvuf ilmida tajalli va ehson bir-birini to‘ldiradi. “Jabroil hadisi” yoki mashhur sahoba Umar ibn Xatob r.a. dan rivoyat qilingan hadis bunga asos bo‘ladi: “Allohga xuddi Uni ko‘rib turgandek ibodat qil. Agar sen Uni ko‘rmasang, U seni ko‘rib turgandek ibodat qil”[3].

Hadis tasavvufiy maqomlarni ikki bosqichda tushuntiradi: Allohni ko‘rib turgandek ibodat qilish – bu maqom eng oliy daraja bo‘lib, Rasululloh s.a.v Me’roj kechasida shu maqomga yetganlari rivoyat qilinadi[2]. U seni ko‘rib turgandek ibodat qil – shariat bosqichi, ya’ni shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat va ma’rifatsiz haqiqatning mavjud bo‘lishi mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, tajalli, ishq va ehson tushunchalari tasavvuf ilmida Allohga yaqinlashish, qalb poklanishi va ruhiy yangilanishni ta’minlaydigan markaziy tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Rivoyat misoli: “Bir kuni Imom Shofiy hazratlari shogirdi bo‘lmish Imom Ahmad bilan birga ketayotgan edi. Yo‘lda bir cho‘ponni ko‘rib shogirdi Imom ibn Hanbal keling shu cho‘ponga dini haqida ozroq ilim bersak” - deganda ustozlari ibn Shofiy qo‘ying u kishi so‘fiyga o‘xshaydi deydi. Unga o‘zni tiliga gapirish kerak deydi.

Shogirdlari esa cho‘pon oldiga borib dini haqida savol beradi. Nechta qo‘ying bor deb so‘raganlarida u qirqta bor deb javob beradi. Shu qo‘ylardan nechtasini zakot berasiz deb so‘radi, cho‘pon siz bilgan narsani aytaymi yoki o‘zim bilganimni aytaymi deb javob qiladi. Imom Ahmad ibn Hanbal esa men bilganimni ayting deb javob berdilar. Shunda cho‘pon qirqta qo‘ydan bittasini zakot beraman dedilar. O‘zingiz bilganini ayting-chi deganlarida shunday javob berdi. Bu qo‘ylarni hammasi Allohnik qachon qayerda zarurati borligini bilsam hammasini berib yuboraman dedilar. Shunda Imom Ahmad ustozlari Imom Shofiyga qaradi va keyingi savolni berdi. Namoz o‘qiyotganingizda qaysi rakatga kelganingizni eslay olmasangiz nima qilasiz? - deb so‘radilar. U kishi siz bilgan narsani aytaymi yoki o‘zim bilganimni aytaymi, deb javob qiladi. Imom Ahmad ibn Hanbal esa men bilganimni ayting deb javob berdilar. Shunda cho‘pon siz bilganingiz eng kamni olib o‘tirib yana ikki rakat o‘qiyman, va sajdaif saf qilaman. Imom Ahmad esa endi o‘zingiz bilganingizni ayting-chi dedilar. Men bilganim buyuk Robbimni huzurida chiqib hayoli qochadigan, chalg‘iydigan insoni qalbni davolash kerak deb javob qildilar. Imom Ahmad hayron bo‘lib qoldilar shunda ustozlari Imom Shofiy hazratlari men sizga nima degan edim. Bu kishi so‘fiyga o‘xshaydi degan edimmi bular bilan o‘zni tili bilan gaplashish kerak deb aytdilar.” Bu rivoyatdan ko‘rinadiki har bir sufiy ham tariqatni bilishni, va har bir shariat ulamolari ham tariqatni bilishni ko‘rsatib o‘tmoqda. Rivoyatda siz bilganingizni aytaymi deyishini to‘g‘ri ma’noda tushunish kerak. Ya’ni bu yerda shariatni aytib o‘tmoqda. Cho‘poning esa o‘z tili bilan gaplashish kerakligini aytib o‘tgan Imom Shofiy esa so‘fiylarni bir ko‘rishdan tanishligini ham alohida aytib o‘tilganligini ko‘rishmiz mumkin. Bu go‘zal savol-javob tarzda bayon qilingan. Xo‘sh nega unda bu ikki guruh o‘rtasida shu darajada janjal kelib chiqib hattoki bir birni kufirda ayblagan. Bunga biz kimnidir aybdor yoki kimnidir haq deb aytmoqchi emasmiz. Faqat bu masalaga faqih va so‘fiy ulamolarni fikrlarni keltirib o‘tmoqchimiz.

Mashhur so‘fiy shayx Rifoiy r.a. aytadilar: “Siz Horis aytdi, Abu Yazid dedi, Halloj gapirdi deysiz. Shofiy aytdi, Molik aytdi, Ahmad dedi deysiz. Avvalo ochiq muammolarni to‘g‘rilang, so‘ngra ortiqcha gaplar ila huzurlaning. Shariat poydevori ilm va amal bilan mustahkamlanadi[6]. Shu fikrlar orqali sufiylar ilmni ibodatdan ustun qo‘yish zarurligini ta’kidlaydilar: “Bir soatlik ilm majlisi yetmish yillik ibodatdan afzaldir.” Vali (Alloh yo‘lida tanlangan kishi) hech qachon o‘z dini bo‘yicha johil bo‘lmaydi. U namoz, ro‘za, zakot va haj amallarini yaxshi biladi va qalbini ham poklaydi. Bu rivoyatlar va hikmatlardan ko‘rinadiki: Shariatni bilmasdan amalga oshirilgan ibodatlar to‘liq mukammal bo‘lmaydi. Tariqat ilmi qalbni tarbiyalaydi, shariat esa tashqi amallarni mustahkamlaydi. Haqiqiy sufiy shariat va tariqatni

uyg'unlashtiradi, shariatni inkor qilmaydi, fiqh ulamosi esa qalbiy tarbiyaga e'tibor beradi.

Shunday qilib, har bir shayx va tariqat sufiyining birinchi vazifasi shariatni chuqur o'rganish va unga amal qilishdir. Xo'ja Ahmad Yassaviyning "Faqrnoma"da noloyiq shayxlarning quyidagi illatlari qattiq qoralanadi:

- muridlardan ta'ma qiladi, jonini kufri zalolatdan ayirmaydi;
- ahli bid'atni yaxshi ko'radi, ahli sunnatni esa yomon ko'radi;
- ilmi shariatga amal qilmaydi;
- nomahramlarga ko'z soladi;
- yomonlikni pasha qiladi-yu, Alloh taoloning rahmatidan umid tutadi;
- mashoyixlar ishini xor tutadi;
- moddiy manfaat uchun muridlari eshigida xor-zor yuradi[1].

Bu yerda Yassaviy shayxlar va sufiylarni faqat ruhiy va shariat ma'rifatini oshirishga xizmat qiladigan, soxta shayxlar esa xalq orasida fitna chiqaruvchi guruh bo'lishini ogohlantiradi.

Shuningdek, Imom Molik hazratlari aytadilar: "Kim sufiy bo'lsa-yu faqih bo'lmasa zindiq hisoblanadi; kim faqih bo'lsa-yu sufiy bo'lmasa fosiqdir; kim ikkalasini ham jamlasa, u muhaqqiqdir." Shu bilan ulamolar shariat va tasavvufning uyg'unligi, ilm va amalning birligi eng yuqori natijaga olib borishini ta'kidlaydilar. Bu ilm tadriji bo'lib, unda shariat ilmi, tariqat ilmi va qalbiy tarbiya bir-birini to'ldiradi.

Bizning yurtimizdagi ulug' shayxlar va faqih olimlarimiz, dunyoga dong taratgan bobolarimiz singari, Allohdan ilmni mukammal qilishni, laduniy va rabboniy ilmlarni olishni so'rab, xalqqa adabiyot va diniy ma'rifatni chuqurroq yetkazishni davom ettiradilar. Tarixiy manbalar, mashhur shayxlar va ulamolar rivoyatlari shuni ko'rsatadiki, tasavvufning asosiy maqsadi Alloh taoloni tanish va bandalikni mukammal bajarish, komil insonni tarbiyalashdir.

Mashhur shayxlar va ulamolar (Imom Shofiy, Imom Ahmad ibn Hanbal, Imom Molik, Xo'ja Ahmad Yassaviyning Faqirnoma asari) shariat ilmi va tariqat ilmi uyg'un bo'lishini ta'kidlagan. "Bir soatlik ilm majlisi yetmish yillik ibodatdan afzaldir" degan rivoyat ilmning ibodatdan ustunligini va har bir murid, shayx va faqihning birinchi vazifasi ilmni o'rganish va amal qilish ekanligini bildiradi.

Qalb, ruh, nafs va aql tushunchalari orqali musulmon banda o'zini tanib, nafsini tarbiyalash va qalbini poklashga intiladi. Qur'oni Karimning "Shams" va "Isro" suralaridagi oyatlar nafs va ruhni to'g'ri yo'naltirish, taqvo va poklikni amalda uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xo'ja Ahmad Yassaviyning hikmatlari va rivoyatlar shuni isbotlaydiki, hech bir shayx shariatdan tashqariga chiqmaydi. Soxta shayxlar esa moddiy manfaatlar va bid'at

yo‘llariga ergashadi, xalq orasida fitna tarqatadi. Imom Molikning ta’kidlashicha, shariat ilmsiz tasavvufni da’vo qiluvchi shaxs zindiq, sufiyliksiz faqat faqih bo‘lgan shaxs esa fosiqdir. Eng mukammal yo‘l shariat va tasavvufni birlashtirgan muhaqqiqdir. Estetik va axloqiy qadriyatlar: Tasavvufiy hikmatlar muridlarni nafsni tarbiyalash, qalb va ruhni poklash, hikmat bilan hayot kechirishga chaqiradi. Komil insonning xulqi va odoblari, Rasululloh s.a.v. hayoti va sunnatlari esa insoniyat uchun abadiy ibratdir. Tasavvufning mohiyati shariat bilan uyg‘unlik, ilm va amalni uyg‘unlashtirish, qalb va ruhiy poklikni ta’minlashdan iborat bo‘lib, har bir murid va shayxning birinchi vazifasi ilm va amal orqali komil insonlikka intilishdir.

### Adabiyotlar

1. Abdurahmon Go‘zal Yassaviy “Faqrnoma”si Toshkent “Navro‘z” nashriyoti 2014 Usmonli turkchadan tahrir va qisqartirishlar bilan o‘zbekchalashtiruvchi: filologiya fanlari nomzodi Nodirxon HASAN 7-bet
2. Haqqul, I. Tasavvuf falsafasi va ma’rifat – Toshkent: Fan, 2012. – 112-bet
3. Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termizi, Nasaiy. Sahih rivoyatlar – Toshkent, 2010. – 34–36-betlar.
4. Komilov, N. Tasavvuf – Toshkent: Fan, 2009. – 102–104-betlar
5. Najmiddin Kubro. Fusus al-Hikam – Bag‘dod, 1980. – 45-bet.
6. Rifoiy, A., Hikmatlar va Fiqh, Iroq: 1995, 45–50-betlar.
7. Rumi, J. Masnaviy-i Ma’navi, 1-jild – Konya, 1998. – 12-bet.
8. Yassaviy, A. Divan-i Hikmat – Turkmanboshiy nashri, 2009. – 124–127-betlar.